

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning XORIJIIY MODELLARI VA MILLIIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

FOREIGN MODELS OF ENSURING THE IMPLEMENTATION OF NORMATIVE LEGAL ACTS AND CONCLUSIONS FOR NATIONAL PRACTICE

Yakubov Mirzakhid Turabaevich

Independent researcher of the Tashkent state university of law

Email: turaevich@gmail.com

Abstract. This article provides a comparative legal analysis of foreign models for ensuring the implementation of normative legal acts. Based on the experience of Kazakhstan, the Russian Federation, Belarus, Armenia, and the Kyrgyz Republic, the study examines institutional mechanisms for monitoring the implementation of presidential and governmental acts, issues of executive discipline, monitoring procedures, and accountability of officials. Particular attention is paid to the role of enforcement control in the realization of state legal policy. The research formulates conclusions and recommendations aimed at improving national practice in ensuring the effective implementation of normative legal acts. The article addresses issues of strengthening the rule of law and enhancing the efficiency of public administration.

Keywords: normative legal act, enforcement control, legal policy, presidential acts, executive discipline, monitoring; public administration, comparative legal analysis, institutional mechanism.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR IJROSINI TA'MINLASHNING XORIJIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR

Yakubov Mirzaxid Turabayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashning xorijiy modellari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Xususan, Qozog'iston, Rossiya, Belarus, Armaniston va Qirg'iziston tajribasi misolida Prezident va Hukumat hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilishning institutsional mexanizmlari, ijro intizomi, monitoring tizimi va mas'uliyat choralari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijro nazoratining huquqiy siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini samarali ta'minlash bo'yicha milliy amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan. Maqola davlat boshqaruvida huquqiy tartib va qonun ustuvorligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy hujjat, ijro nazorati, huquqiy siyosat, Prezident hujjatlari, ijro intizomi, monitoring, davlat boshqaruvi, qiyosiy-huquqiy tahlil, institutsional mexanizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N47>

Kirish. Huquqiy davlatni barpo etish va samarali davlat boshqaruvini ta'minlash jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarning to'liq, o'z vaqtida hamda sifatli ijrosini ta'minlash alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi huquqiy siyosatni amalga oshirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uning mazmun-mohiyati amalda ro'yobga chiqishi esa, samarali ijro mexanizmi, aniq institutsional tuzilma va tizimli nazorat orqali ta'minlanadi. Shu ma'noda, ijro nazorati instituti davlat irodasining amaliy ifodasi, qonun ustuvorligining kafolati va davlat organlari faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash masalasi faqat ichki boshqaruv muammosi emas, balki strategik rivojlanish, investitsiyaviy jozibadorlik va jamiyatda huquqiy ishonchni mustahkamlash omili sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Turli davlatlarda ijro intizomini ta'minlashga qaratilgan o'ziga xos tashkiliy-huquqiy modellar shakllangan bo'lib, ularda markazlashgan nazorat organlari, raqamli monitoring tizimlari va mas'uliyat mexanizmlari joriy etilgan.

Xorijiy tajribani qiyosiy-huquqiy tahlil qilish milliy amaliyotni takomillashtirish, ijro nazorati samaradorligini oshirish hamda huquqiy siyosatni izchil va natijaviy amalga oshirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqola aynan shu vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashning xorijiy modellarini o'rganish va milliy amaliyot uchun xulosalar ishlab chiqish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini huquqiy hodisalarni tizimli, qiyosiy va tahliliy o'rganish tamoyillari tashkil etadi.

Ishda avvalo qiyosiy-huquqiy metoddan foydalanilib, Qozog'iston, Rossiya, Belarus, Armaniston va Qirg'iziston davlatlarida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashning institutsional mexanizmlari tahlil qilindi. Ushbu davlatlarda Prezident va Hukumat hujjatlari ijrosini nazorat qilishga oid huquqiy baza, vakolatli organlar faoliyati, ijro intizomi va mas'uliyat choralari o'zaro taqqoslandi.

Shuningdek, formal-yuridik metod asosida normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni, ularda belgilangan nazorat mexanizmlari va huquqiy normalarning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Tizimli tahlil usuli orqali ijro nazorati institutining davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni va funksiyalari aniqlandi. Ilmiy umumlashtirish va induksiya-deduksiya usullari esa, xorijiy tajribadan milliy amaliyot uchun amaliy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida huquqiy siyosat konsepsiyasi doirasida ijro mexanizmining ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Muhokama va asosiy natijalar. Normativ-huquqiy hujjatlarning ijro etilishi huquqiy siyosatni amalga oshirishining instrumenti bo'lib, aynan ijro etish orqali normativ-huquqiy hujjat qog'ozdan hayotga ko'chadi va huquq ijodkori unga loyiha vaqtida mujassam etgan maqsad amalga oshiriladi.

Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda ham normativ-huquqiy hujjatlarning samarali, to'laqonli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlash, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatish masalalari siyosatning eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu vazifa turli davlatlarda har xil yo'llar bilan ta'minlanadi. Masalan, Belarus va Armaniston respublikalarida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash markaziy moliyaviy nazorat organiga yuklatilgan bo'lsa, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasida esa Hukumat va Prezident Administratsiyasi ushbu masalaga mas'ul hisoblanadi.

Xususan, **Qozog'iston Respublikasida** Prezident hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni quyidagilar amalga oshiradi:

1) Prezident Administratsiyasi – Hukumat, markaziy va mahalliy ijroiya organlari, bevosita Prezidentga bo'ysunadigan va hisobdor bo'lgan davlat organlari va boshqa organ va tashkilotlarga nisbatan;

2) Hukumat – markaziy va mahalliy ijroiya organlari, boshqa organ va tashkilotlarga nisbatan;

3) markaziy va mahalliy ijroiya organlari – o'zlariga bo'ysunadigan tashkilotlar va mansabdor shaxslarga nisbatan.

Prezident hujjatlarini amalga oshirish va yakuniy natijalari ustidan nazorat Prezident Administratsiyasi tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotlariga rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish orqali ham amalga oshiriladi. Tekshirishlar zarur axborotni talab qilib olish, mansabdor shaxsni axborot olish maqsadida chaqirtirish, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalari (axborot tizimlari)dan zarur axborotni olish; reviziya, hujjatlarni tekshirishning boshqa shakllari va qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa usullar yordamida amalga oshiriladi.

Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 11-martdagi 552-son Farmoni bilan tasdiqlangan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi to'g'risidagi nizomga ko'ra [1], Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Prezident vakolatlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun bajaradigan funksiyalardan biri bu – davlat organlari tomonidan davlat siyosati amalga oshirilishi, Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi ustidan, shu jumladan, tekshiruvlar o'tkazish orqali nazoratni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, Administratsiya rahbari Prezident hujjatlari ijrosi va ularga rioya etilishi, Prezident topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat o'rnatish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirib boradi.

Administratsiya rahbari o'rinbosari, Prezident yordamchilari va Prezident Kanselyariyasi rahbarining asosiy vazifalaridan biri sifatida ham Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish nazarda tutilgan. Shuningdek, Prezident Administratsiyasi tarkibiy bo'linmalari rahbarlari zimmasiga ham o'z yo'nalishlarida Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish belgilab qo'yilgan.

Prezident Administratsiyasining Umumiy bo'limi ham Prezident hujjatlari ijrosini ta'minlashda muhim vazifani bajaradi. Xususan, Umumiy bo'lim Prezident farmonlarining monitoringini amalga oshiradi; Prezident hujjatlarining ijrosini nazorat qiladi; Prezident va Administratsiya rahbarini Prezident hujjatlari ijrosi haqida xabardor qiladi; Prezident hujjatlari markaziy va mahalliy davlat organlari tomonidan bajarilishi sifatini baholash natijalari bo'yicha ekspert xulosasini tayyorlaydi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi va ijro intizomi masalalari tizimli ravishda, lekin har oyda kamida bir marotaba Hukumat apparat yig'ilishida markaziy va mahalliy ijroiya organlari rahbarlari ishtirokida ijro etilmaslik xavfini aniqlash va barvaqt bartaraf etish choralari ko'rgan holda muhokama qilinadi.

Qozog'iston Respublikasida Prezident hujjatlarini to'liq, o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlashda davlat organlarining rahbar o'rinbosarlari alohida o'rin tutadi. Xususan, ushbu mansabdor shaxslar o'z yo'nalishi bo'yicha Prezident hujjatlari kelib tushgach, uch kun muddatda uni ijro bosqichlarini qamrab olgan rejani ishlab chiqadi, mehnat va boshqa zarur resurslarni belgilaydi, tegishli so'rov va xatlarni yuboradi; mas'ul xodim va mansabdor shaxslarning asosiy yo'nalishlarni va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ishchi hamkorligini

ta'minlaydi; tizimli ravishda ichki oraliq nazoratni va topshiriq ijrosi bo'yicha monitoringni ta'minlaydi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ularda ko'rsatilgan muddatlarda ijro etilishi lozim. Basharti, hujjatning o'zida uni ijro etish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, mazkur hujjatni ijro etish muddati Prezident Administratsiyasi tomonidan belgilanadi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi quyidagi muddatlarda ta'minlanishi lozim:

1) "o'ta shoshilinch" – 3 ish kunida, "shoshilinch", "zudlik bilan" – o'n kungacha muddatga;

2) qisqa muddatli – o'n kundan bir oy muddatga;

3) o'rta muddatli – bir oydan olti oy muddatga;

4) uzoq muddatli – olti oydan ko'p muddatga.

Prezident Administratsiyasiga Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi natijalari bo'yicha axborot taqdim etish muddatlarini buzishga yo'l qo'yg'an mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi.

Kompleks va idoralararo xususiyatga ega va ijro muddati olti oydan ziyod bo'lgan Prezident hujjatlarini ijro etish ikki va undan ortiq davlat organlari zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular tomonidan 10 ish kuni ichida tashkiliy chora-tadbirlar rejasi (yo'l xaritasi) ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi bevosita Prezidentga bo'ysunuvchi va hisobdor bo'lgan yoxud boshqa Hukumat tuzilmasiga kirmaydigan markaziy davlat organi tomonidan tayyorlanganda, basharti, unda Hukumat vakolatiga taalluqli tadbirlar mavjud bo'lsa, u ushbu tashkilotning birinchi rahbari tomonidan Bosh vazir bilan kelishilgandan so'ng tasdiqlanadi.

Basharti, ishlab chiqaruvchisi boshqa markaziy davlat organi bo'lgan tashkiliy chora-tadbirlar rejasi idoralararo xususiyatga ega bo'lsa, u tegishli Bosh vazir o'rinbosari yoki Hukumat apparati rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Hukumat ijrochisi etib belgilangan Prezident hujjatlarini ijro etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejasi bajarilishini muvofiqlashtirish tegishli Bosh vazir o'rinbosari zimmasiga yuklatiladi.

Prezident hujjatlarining to'liq, o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini nazorat qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1) kelgusida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan rejali ko'rsatkichlardan og'ishga yo'l qo'ymaslik maqsadida hujjatning ijro holatini davriy monitoring qilish, shu jumladan, loyiha boshqaruvi, onlayn-servislar, video-servislar va boshqalar orqali;

2) zarur rasmiy axborotni elektron hujjat almashinuvi tizimi orqali talab qilib olish;

3) ijro haqidagi hisobot va ma'ruzalarni eshitish va muhokama qilish;

4) reviziya va hujjatlarni tekshirishning boshqa shakllari;

5) joyiga chiqqan holda tekshiruv o'tkazish;

6) qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa usullar.

Prezident Administratsiyasi rahbari har yil yakuni bo'yicha Davlat rahbariga Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat qilish natijalari va holati hamda Prezidentning saylovoldi dasturi va umummilliy chora-tadbirlar bajarilishi holati to'g'risida axborot beradi.

Qozog'istonda Prezident farmonlari ijrosi ulardagi qarama-qarshiliklar, takrorlanishlar, bo'shliqlar, samarasiz amalga oshirilayotgan, eskirgan va korrupsiyaviy normalarni aniqlash va prognoz qilish, tahlil, samaradorligini baholash maqsadida monitoring qilinishi belgilangan.

Farmonlar monitoringi uni ishlab chiqqan davlat organlari tomonidan doimiy asosda yuritiladi. Prezident Administratsiyasi tomonidan tayyorlangan farmonlar monitoringi ularni bevosita ishlab chiqqan Administratsiyaning tarkibiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat organlari monitoring natijalari bo'yicha ma'lumotni, zarur hollarda esa, tegishli farmonlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflarni tegishli yil 31-dekabrga qadar Prezident Administratsiyasiga kiritadi.

Ta'kidlash lozimki, Qozog'iston Respublikasining 2023-yil 4-dekabrdagi Farmoni bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari bilan ishlash hamda ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, farmonlarni monitoring qilish Qoidalariga o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu tuzatishlarga ko'ra, Prezident hujjatlarini ishlab chiqishda kutilayotgan aniq natija va samaradorlik, ijro etish muddatlarining realligi, iqtisodiy samaradorlik va resurslar bilan ta'minlanganlik inobatga olinishi lozim.

Rossiya Federatsiyasida ham Prezident hujjatlarini ijro etish muhim ahamiyatga ega. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hujjatlarini ijro etish bosqichida mazkur hujjatlarning ijrosi bevosita mas'ul ijrochilar tomonidan tashkil etiladi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hujjatlarini belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi holatlar aniqlansa, ijrochi bu haqda belgilangan muddatning kamida yarmi o'tmasidan oldin davlat boshlig'i nomiga ijro muddatini to'g'rilash bo'yicha topshiriqni o'z muddatini bajarishning imkonsizligi sabablarini va ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni hamda ijro muddatini uzaytirish bo'yicha taklifni ko'rsatgan holda axborot kiritishi lozim bo'ladi.

Ijro muddati uch martadan ko'p uzaytirilgan topshiriqlar ijrosini yana uzaytirish masalasi Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi. Bunda Prezident Administratsiyasi tomonidan ijrochi tomonidan ijro muddatini uzaytirishning maqsadga muvofiqligi haqida taklif tayyorlanadi.

Rossiya Federatsiyasida belgilangan tartibga ko'ra, Prezident hujjati yoki topshirig'i ijrosi bo'yicha belgilangan muddatlarda Prezident nomiga tegishli hujjat yoki topshiriqning ijrosi yuzasidan aniq natijalar ko'rsatilgan axborot xatini kiritishi zarur. Basharti hujjatda yoki topshiriqda bir nechta ijrochilar ko'rsatilgan bo'lsa, hujjat yoki topshiriq ijrosi bo'yicha birinchi ko'rsatilgan ijrochi hujjat yoki topshiriq ijrosi bo'yicha axborot xatini tayyorlaydi va kiritadi. Bunda u hujjat yoki topshiriq ijrosi bo'yicha axborotni o'z vaqtida taqdim etish uchun javobgar hisoblanadi.

Basharti hujjat yoki topshiriqning ijrosi natijasi bo'yicha parlamentga qonun loyihasi kiritilsa yoxud Prezident yoki Hukumat qarori qabul qilinsa, unda axborot xati o'rniga Prezident Nazorat boshqarmasiga hujjat ijro etilganligi haqidagi axborot kiritiladi.

Prezident nomiga kiritilgan axborot xatlari Administratsiya rahbari tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va Davlat rahbariga axborot beriladi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat Administratsiya tomonidan uning rahbari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shu bilan birga Administratsiya rahbari, Prezident yordamchisi – Nazorat boshqarmasi boshlig'i Davlat rahbarini muntazam ravishda uning hujjatlari va topshiriqlari ijrosi haqida xabardor qilib boradi, shuningdek, ijro intizomi buzilishiga yo'l qo'ygan aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish haqida taklif kiritadi.

Nazorat boshqarmasi ijro hokimiyati organlari va tashkilotlar tomonidan qonunlar, Prezident farmonlari (xususan, Prezident vakolatlariga, shu jumladan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga taalluqli masalalar bo'yicha), farmoyishlari va boshqa qarorlari, topshiriqlari ijrosini nazorat qiladi va tekshiradi; Prezidentning har yili parlamentga murojaatlarini amalga oshirishni nazorat qiladi; tekshiruv natijalari bo'yicha Prezidentni xabardor qiladi va ular asosida aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2011-yil 28-martdagi "Rossiya Federatsiyasi Prezidentining topshiriq va ko'rsatmalari ijrosini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 352-sonli Farmoniga muvofiq [2], Prezidentning topshiriq va ko'rsatmalari 1 kun muddatda ro'yxatdan o'tkaziladi, ijrochilari va ularni bajarish muddatlari belgilanadi. Topshiriq va ko'rsatmalar ijro muddati quyidagicha belgilanadi: topshiriq va ko'rsatmalarda belgilangan muddatlarda; "shoshilinch", "zudlik bilan" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – 3 kunlik muddatda; "tezkor" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – 10 kunlik muddatda; ijro muddati belgilanmagan topshiriq va ko'rsatmalar – 1 oylik muddatda; "doimiy" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – keyingi hisobot yilining 20-yanvariga qadar; "har oy" yoki "har chorakda" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – hisobot oyi yoki choragidan keyingi oy yoki chorakning 20 sanasigacha bo'lgan muddatda (5-band).

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining topshiriq va ko'rsatmalari ijrosini tashkil etish uchun mas'ul ijrochi tomonidan ularni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi va tegishli tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi, zarur hollarda ishchi guruhlar tashkil etiladi.

Basharti hujjatning ijrosini ta'minlash asosiy ijrochi yoki ham-ijrochining vakolatlari doirasidan chetga chiqsa, ularga asosiy ijrochini o'zgartirish yoki qo'shimcha ham-ijrochilarni ham jalb etish yuzasidan taklif kiritish huquqi beriladi [3].

Shu bilan birga Rossiya Federatsiyasi Prezidentining federal okrugdagi vakolatli vakillari instituti faoliyat ko'rsatadi. Xususan, 2020-yil 11-avgustdagi "Rossiya Federatsiyasi Prezidentining federal okrugdagi vakolatli vakillari to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, ular ham tegishli hududda qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish jarayonida ishtirok etadi. Xususan, ular tegishli hududda davlat hokimiyati organlari qarorlari ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi; qonunlar, farmonlar, farmoyish, ko'rsatma va topshiriqlar, davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi; qonun, farmon, farmoyish, topshiriq va ko'rsatmalar ijrosini tekshirishni tashkil etishda Nazorat boshqarmasi va prokuratura organlari bilan hamkorlik qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining federal okrugdagi vakolatli vakillari davlat hokimiyati organlaridan, mahalliy hokimiyat organlaridan zarur materiallarni so'rash va olish; davlat organlari ma'lumotlar bazasidan foydalanish; o'z vakolati doirasida Prezident farmon va farmoyishlari va federal dasturlar ijrosini tekshiradi; Nazorat boshqarmasi, zarur hollarda esa, boshqa davlat organlari va ularning hududiy bo'linmalari vakillarini tekshirish o'tkazishga jalb qiladi.

Armaniston Respublikasida 2018-yil 23-martda "Davlat nazorat xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan [4]. Qonunga ko'ra, Davlat nazorat xizmati davlat boshqaruvi organlari

va davlat muassasalarida Hukumat qarorlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda uning natijalari asosida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar kiritadi.

Davlat nazorat xizmati O'zbekistondagi Hisob palatasiga o'xshash bo'lib, u Bosh vazir bilan kelishgan holda nafaqat moliyaviy masalalarni, balki normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi bo'yicha ham o'rganishni amalga oshiradi (5-modda). Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini o'rganish joyiga chiqqan holda ham, o'rganishga taalluqli materiallarni talab qilib olgan holda ham amalga oshirilishi mumkin. O'rganish natijalari Bosh vazirga axborot ko'rinishida taqdim etiladi hamda u keyinchalik u yoki bu normativ-huquqiy hujjatni qo'llash bo'yicha topshiriqqa asos bo'lishi mumkin.

Belarus Respublikasida esa, 1996-yil 5-dekabrda tuzilgan Davlat nazorat qo'mitasi faoliyat ko'rsatib, u to'g'ridan to'g'ri Prezidentga bo'ysunadi. Ushbu qo'mita ham O'zbekistondagi Hisob palatasiga o'xshash bo'lib, moliyaviy masalalar bilan bir qatorda Parlament, Prezident va Hukumat qarorlari ijrosini ham nazorat qiladi.

Belarus Respublikasi Prezidentining 2008-yil 27-noyabrda 647-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat nazorat qo'mitasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Qo'mitaning asosiy vakolatlari sirasiga quyidagilar ko'rsatilgan: muassasa va fuqarolardan ma'lumotlarni so'rash va olish; muassasalar ma'lumotlaridan bepul foydalanish; tekshiruvlarga huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari mutaxassislarini jalb qilish; Prezidentni uning qarorlarida nazarda tutilgan topshiriqlar bajarilmaganligi haqida xabardor qilish [5].

Qirg'iziston Respublikasida Prezident Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 31-martdagi 116-sonli farmoyishi bilan Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti va Administratsiyasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi ustidan nazorat qilish boshqarmasi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Unga ko'ra boshqarma quyidagi vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi:

- qonunlar, Prezident hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini ta'minlaydi, boshqa nazorat hujjatlari lozim darajada ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

- davlat organlari tomonidan qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat hujjatlari, umummilliy loyihalar, Prezidentning Qirg'iziston xalqiga yillik murojaatnomasi o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi ustidan tegishli tekshiruvlarni o'tkazish orqali nazoratni amalga oshiradi;

- Prezidentni tekshiruv natijalari haqida xabardor qiladi va shu asosda aniqlangan ijro intizomi buzilishini bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- davlat organlarida ijro intizomi holati to'g'risida, qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlashda kamchilikka yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy ta'sir choralari qo'llash bo'yicha xulosa va takliflarni qamrab olgan axborot-tahliliy ma'lumot tayyorlaydi va Prezidentga kiritadi;

- qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat hujjatlarining lozim darajada ijro etilmaganligi fakti, bu boradagi aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'radi;

- tegishli organlar rahbarlari tomonidan qonun, parlament, Prezident va Hukumat hujjatlarini lozim darajada ijro etilishini ta'minlamagan mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni ta'minlaydi;

- Prezident hujjatlari ijrosini nazoratdan olish va muddatini uzaytirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

– har yarim yil va yil yakuni bo'yicha hujjatlar ijrosini nazorat qilish bo'yicha hujjatlar almashinuvi tahlilini o'tkazadi;

– nazoratda bo'lgan hujjatlarning elektron ma'lumotlar bazasini yuritadi.

Boshqarma qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

1) ijo etuvchi davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarida qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat qarorlari ijrosi bo'yicha tekshiruvlarni tashkil etadi va o'tkazadi; 2) davlat organlari va tashkilotlarda qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat qarorlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida maxsus komissiya va ishchi guruhlar tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi; 3) qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat qarorlarini lozim darajada ijo etmaganlik uchun ijo etuvchi davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarini intizomiy javobgarlikka tortish, egallab turgan lavozimidan ozod etish bo'yicha Prezidentga taklif kiritadi va boshqalar.

Tojikiston Respublikasida qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishda Prezident apparati muhim rol o'ynaydi. Xususan, Tojikiston Respublikasi Prezidentning 2014-yil 17-martdagi 181-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Tojikiston Respublikasi Prezidenti ijo apparati to'g'risidagi nizomga ko'ra [6], Prezident apparatining asosiy vazifalaridan biri sifatida qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident topshiriqlari ijrosini tekshirish va nazorat qilish hamda ularning bajarilishi jarayonida haqida ma'lumot taqdim etish; Prezident normativ-huquqiy hujjatlari bajarilishi ustidan nazorat qilish nazarda tutilgan.

Xulosa. Olib borilgan qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash zamonaviy davlat boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Qozog'iston, Rossiya, Belarus, Armaniston va Qirg'iziston tajribasi ijo nazorati instituti markazlashgan tashkiliy tuzilma, doimiy monitoring, tahliliy baholash va shaxsiy mas'uliyat mexanizmlari orqali samarali amalga oshirilishini namoyon etadi. Xususan, ijo intizomini baholash, normativ hujjatlarning amaliy samaradorligini monitoring qilish, elektron ma'lumotlar bazasini yuritish va oliy darajada qaror qabul qilish uchun tahliliy axborot tayyorlash amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash faqat nazorat funksiyasi emas, balki huquqiy siyosatni amalga oshirishning institutsional mexanizmi ekanini tasdiqlaydi. Milliy amaliyotni takomillashtirish nuqtai nazaridan ijo monitoringi tizimini raqamlashtirish, samaradorlikni baholash mezonlarini aniq belgilash, mas'uliyat mexanizmlarini kuchaytirish hamda tahliliy-tadqiqot funksiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu orqali davlat qarorlarining hayotiyligi, qonun ustuvorligi va davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlashga erishish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/U020000805>
2. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_112153/942772dce30cfa36b671bcf19ca928e4d698a928/
3. Козырев М.С. Порядок подготовки, принятия и исполнения актов президента РФ // Материалы Афанасьевских чтений. – 2016. №4. – С.75-76.
4. Закон Республики Армения “О Государственной контрольной службе” от 23 марта 2018 года ЗР-279-Ն // Сайт парламента Армении – www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=6393&lang=rus

5. Указ Президента Республики Беларусь от 27 ноября 2008 г. № 647 «О некоторых вопросах деятельности органов Комитета государственного контроля Республики Беларусь // www.pravo.by/document/?guid=3871&p0=p30800647
6. http://www.portali-huquqi.tj/publicadliya/view_qonunhoview.php?showdetail=&asosi_id=16156

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).